

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON IQTISODIYOT VA QURILISH INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.711

MITILLAEV IBROXIMJON TURSUNPULATOVICH

**TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARI VA ULARNI
BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan**

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.d., (DSc). S.K.Maxmudov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	Kirish.....	
I BOB.	TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI AKTIVLARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	
1.1-§	Tijorat banklari muammoli aktivlarini vujudga kelish sabablari va qisqartirish zarurligi	
1.2-§	Tijorat banklari aktivlari sifatini baholash va qisqartirishning tashkiliy-huquqiy asoslari	
1.3-§	Tijorat banklari muammoli aktivlarini qisqartirishning xorij tajribasi	
	<i>Birinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
II BOB.	TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI AKTIVLARNI AMALDAGI XOLATINI TAHLILI VA ULARNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	
2.1-§	Tijorat banklarida muammoli aktivlar holati va ularni qisqartirish amaliyotini tahlili	
2.2-§	Tijorat banklarida muammoli aktivlarni qisqartirishdagi muammolar va ularning echimlari	
2.3-§	Tijorat banklarida muammoli aktivlarni qisqartirish imkoniyatlari va ulardan foydalanish natijalari	
	<i>Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
III BOB.	TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI AKTIVLARNI QISQARTIRISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
3.1-§	Tijorat banklari muammoli aktivlarini qisqartirishning ekonometrik tahlili	
3.2-§	Tijorat banklarida muammoli aktivlarini qisqartirish samaradorligini oshirish yo'llari	
	<i>Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....</i>	
	XULOSA	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
	<i>Ilovalar</i>	

KIRISH

KIRISH (FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTASIYASI ANNOTASIYA)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Banklarda muammoli kreditlarning vujudga kelishi va salmog'ining ortib borishi iqtisodiyotda bozor iqtisodiyoti munosabatlari mexanizmlari va pul kredit tizimi o'rtasida iqtisodiy-moliviy munosabatlarni tashkil etishda kamchiliklar va zaifliklar mavjud ekanligidan dalolat beradi. Keyingi o'n yillikda, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar, shuningdek ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning juda tez sur'atlarda globallashuvi, bu boradagi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda. European Systemic Risk Board (ESRB)ga ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasidan so'ng "albatta kreditlash va moliya tizimlarda barqarorlikka erishilmoqda, biroq ayni paytgacha ham yuqori risk tufayli yangi kreditlarning 35 foizini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga kuchli ehtiyoj saqlanib qolmoqda".¹ Bu jarayonlar mahalliy va xalqaro miqiyosda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Jahon amaliyotida xalqaro Bazel qo'mitasi, Markaziy banklar, shuningdek yirik banklar tomonidan muammoli kreditlar hajmini qiqartirish va aktivlar sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar muammoli aktivlar minimal me'yorini belgilash, aktivlar sifatini sifatini shaffofligi va zaxira shakllantirish kabi masalalarda ochib berilgan. Lekin, alohida olingan mamlakat yoki hududda banklarning muammoli aktivlarni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni qisqartirishning samarali yo'llari etarlicha ochib berilmagan. Xususan, banklarning kreditlash jarayoniga ma'muriy ta'sirlar, imtiyozli kredit foizlari, pul taklif darajasining pastligi, milliy valyuta devalvasiyasi kabi masalalar o'zaro bog'liklikda banklarning muammoli aktivlari hajmini qisqartirishning nazariy va amaliy jarayonlari bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Bu o'z navbatida, tijorat banklarining

¹ ESRB (2021): Financial stability implications of support measures to protect the real economy from the COVID-19 pandemic. Available at: https://www.esrb.europa.eu/pub/pdf/reports/esrb.reports210216_FSI_covid19~cf3d32ae66.en.pdf (Accessed 22 February 2021).

muammoli aktivlarini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

O'zbekistonda tijorat banklarini transformasiya qilish, ularning aktivlari sifatini oshirish va bozor tamoyillari asosida shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformasiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha etkazish."² kabi muhim vazifalarining qo'yilishi banklarning muammoli aktivlari hajmini kamaytirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilaydi. Mazkur masalalarning echimlarini topish, bugungi kundagi islohotlarni asosiy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3620-sonli va 2017 yil 12 sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-sonli Qarorlari va ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur Dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari muammoli aktivlari xususida xorijlik iqtisodchi olimlar J.Sinki, G.S.Panova, V.M.Usoskin, O.Lavrushin, Ye.P.Jarkovskaya, L.Millerlarning ilmiy asar va maqolalarida o'z aksini topgan³.

Iqtisodchi olimlardan S.Norqobilov, T.Qoraliev, O.Iminov, D.Saidov, I.Alimardonov, B.A.Maqsudov, U.Tuxtaboev, I.Kulliev, F.Xolmamatov, D.Toshpo'latov, M.Rustamovlarning ilmiy ishlarida tijorat banklarining kreditlash amaliyotining ayrim amaliy jihatlari yoritilgan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining 2-ilovasi 101-bandi.

³ Lavrushin O.I. Bankovskoe delo: sovremennaya sistema kreditovaniya: Finansovaya akademiya pri Prav. RF. -4-ye izd., stereotip. -M.: KnoRus, 2008. -64 s.; Djozef F., Sinki M.L. Upravlenie finansami v kommercheskom banke. M. Infra, 1995.— 820 s.; Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo bank — M.: MKS DIS, 1997. —C.70.; Miller L.R. Sovremennye dengi i bankovskoe delo. — M.: Infra-M, 2000. — 256s.

Xususan, H.Rahmatov bank tizimi rivojlanishining asosiy negizini aktiv operatsiyalar bilan bog‘lab, bank menejmentida aktivlarni boshqarish strategiyasiga alohida e‘tibor qaratadi. Shu bilan birga, iqtisodchi olim aktivlarni boshqarish strategiyasini moliyaviy strategiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida izohlaydi va uni ishlab chiqishda bank tomonidan moliyaviy barqarorlikka faol ta’sir etuvchi omillar tahlilini amalga oshirish kerakligini ta’kidlaydi⁴.

Ta’kidlash joizki, tijorat banklarining muammoli aktivlarini qisqartirish doirasida hamda bu boradagi xorijiy tajribalar alohida ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida tadqiq qilinmagan.

Dissertasiya mavzusining Dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur Dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib, O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli aktivlar hajmini qisqartirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklari muammoli aktivlarini nazariy jihatdan qiyosiy o‘rganish va muammoli aktivlarni bank faoliyatiga ta’sirini aniqlash;

O‘zbekiston tijorat banklarida aktivlar sifatini baholashning tashkiliy-huquqiy asosi va zaxirlar shakllantirish tartibini o‘rganish asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

⁴Norqobilov S.X. Kredit mexanizmi va uning elementlari. -T.: 2010.-98 b.; Iminov O.K.Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish yo‘llari. i.f.d. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. avt.- T.: 2002. -38 b.; Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. i.f.n. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. -T.: BMA,2008. -133b.; Rahmatov H.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bank menejmentida aktivlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. – T., 2011.; Alimardonov I.M. O‘zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish istiqbollari. i.f.n. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. avt. – T.: BMA, 2009. – 20 b.; Maqsudov B.A Tijorat banklarining muammoli aktivlarini qisqartirish yo‘llari diss. avt. -T.: 2013. 22 b , Tuxtaboev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. i.f.n. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. avt. -T.: 2007. - 20 b.; Kulliev I. Ya. Kredit bahosi v unga ta’sir etuvchi omillar. i.f.n. ilm. dar. olish uchun taqd. etil. diss. avt. –T.: BMA, 2009. –22b.; Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. i.f.fal. fan. dok. (PhD) diss. avt. –T.: 2019. –28 b.; Rustamov M.S. Kichik biznes sub’ektlarini kreditlash amaliyotini ilg‘or xorij tajribasi asosida takomillashtirish yo‘llari. i.f.fal. fan. dok. (PhD) diss. avt. – T.: 2019. –24 b.

tijorat banklari muammoli aktivlarini boshqarishning xorij tajribasini o'rganish asosida ijobiy jihatlarini tijorat banklari amaliyotda qo'llash yo'llarini taklif etish;

mamlakatimiz tijorat banklarida muammoli aktivlarni vujudga kelish sabablari va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga baho berish;

tijorat banklarida muammoli aktivlar holati va aktivlar sifatini ekonometrik tahlil qilish;

tijorat banklarida aktivlar sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash asosida ularning echimlari yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida sifatida "Turonbank" ATB va Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish borasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotda qo'llaniladigan usullar: induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik usullar, ekspert baholash, ekonometrik va qiyosiy tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari aktivlari tarkibidagi qoniqarsiz va shubhali aktivlar sifatida tasniflangan aktivlarini balans qiymatidan 10-15 foiz past darajada undirish orqali muammoli aktivlarini bartaraf etish taklifi asoslangan;

uch yil va undan ortiq muddat davomida undirilmay kelinayotgan kreditlarni so'ndirish uchun bank balansiga olingan qarzdorlarning mulkini asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to'lovi summasini qoplash imkoniyatini beruvchi narxda sotish taklifi asoslangan;

ikki yildan ortiq muddatda foydalanmasdan bank balansida turgan ko'chmas mulklarni balans qoldiq qiymatida sotish orqali muammoli aktivlarni 5 foizgacha qisqartirish asoslangan;

banklarning aktivlarini davlat va Markaziy bank qimmatli qog'ozlariga investisiya qilish (Banklar aktivlarini davlat va Markaziy bank qimmatli qog'ozlariga yo'naltirish ularning xavfsizligi va likvidligini ta'minlashda muhim rol

o'ynaydi), jismoniy shaxslarga berilayotgan kreditlar (jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar hajmining oshirilishi banklarning aktivlarining diversifikatsiyasini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali banklarni muammoli kreditlar va qiyin vaziyatlarga nisbatan barqaror qiladi) va lizing (lizing orqali banklar nafaqat kreditlash hajmini oshirish, balki o'z mablag'larini yanada samarali ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday operatsiyalar hajmining oshirilishi bankning muammoli aktivlarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi, chunki lizing shartnomalari va aktivlar kafolat sifatida xizmat qiladi) operatsiyalari hajmini oshirish orqali muammoli aktivlar salmog'ini qisqartirish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muammoli aktivlar qoniqarsiz va shubhali aktivlar sifatida tasniflanganda qarzdorlardan ularning balans qiymatidan past darajada bo'lsada undirish orqali muammoli aktivlarini bartaraf etish taklifi amaliyotga joriy etilgan;

muddati o'tgan kreditlar bo'yicha bank balansiga olingan garov ta'minotini asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to'lovini qoplash summasida sotish haqidagi tavsiyasi amaliyotda qo'llanilgan;

uzoq muddat davomida foydalanmasdan bank balansida hisobga olib kelinayotgan bankning o'ziga tegishli bo'lgan mulklarini qoldiq qiymatida sotish xususida tavsiyasi amaliyotga joriy etish qabul qilingan;

tijorat banklari aktivlarini yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish, chakana kreditlar va lizing xizmatlari hajmini ko'paytirish orqali difersifikasiyalash taklifi amaliyotda joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tijorat banklarida muammoli aktivlarni qisqartirishga qaratilgan nazariy va amaliy muammolarga bag'ishlangan ilmiy qarashlarni o'rganilganligi, bu borada xalqaro bank amaliyotidagi ilg'or tajribalar tadqiq etilganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari moliyaviy hisobotlari va statistik ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot ishini bajarish davomida olingan ilmiy natijalar, xulosa va takliflar tijorat banklarining muammoli aktivlari hajmini qisqartirishga xizmat qilishi, ularning uslubiy asoslari samaradorligini oshirish, soha mutaxassislari va bilim oluvchilarning nazariy-uslubiy bilimlar doirasini kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni tijorat banklarining muammoli aktivlari hajmini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda iqtisodiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida “Bank ishi”, “Tijorat banklarining aktiv va passivlarini boshqarish” va “Pul va banklar” kabi fanlarni o‘qitishda qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarining muammoli aktivlari hajmini qisqartirishga bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklari aktivlari tarkibida qoniqarsiz va shubhali aktivlar sifatida tasniflangan aktivlarini balans qiymatidan 10-15 foiz past darajada undirish orqali muammoli aktivlarini bartaraf etish taklifi (Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining 2024 yil 12 dekabrda 19/03-443 sonli ma’lumotnomasi va Markaziy bank Andijon viloyati bosh boshqarmasining 2024 yil 18 noyabrda 21-17/56-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining xisobotida joriy etilishi natijasida bankning muammoli kreditlari hajmini 2024 yil 10 oktyabrda o‘tgan hisobot davriga nisbatan 5 foizga kamaytirish imkoniyatini berdi;

uch yil va undan ortiq muddat davomida undirilmay kelinayotgan kreditlarni so‘ndirish uchun bank balansiga olingan qarzдорlarning mulkini asosiy qarz va unga hisoblangan foiz to‘lovi summasini qoplash imkoniyatini beruvchi narxda sotish taklifi (Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining 2024 yil 12 dekabrda 19/03-443 sonli ma’lumotnomasi va Markaziy bank Andijon viloyati bosh boshqarmasining 2024 yil 18 noyabrda 21-17/56-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining xisobotida aks ettirildi va amaliyotga joriy etish natijasida bankning muammoli aktivlari hajmini 2024 yil 10 oktyabr holatiga o‘tgan

hisobot davriga nisbatan 5 foizga qisqartirishga erishildi;

ikki yildan ortiq muddatda foydalanmasdan bank balansida turgan ko‘chmas mulklarni balans qoldiq qiymatida sotish orqali muammoli aktivlarni 5 foizgacha qisqartirish mumkinligi haqidagi taklifi respublikamiz tijorat bankalari amaliyotiga joriy etildi (Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining 2024 yil 12 dekabrda 19/03-443 sonli ma’lumotnomasi va Markaziy bank Andijon viloyati bosh boshqarmasining 2024 yil 18 noyabrda 21-17/56-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining xisobotida aks ettirildi va amaliyotga joriy etish natijasida banklarning muammoli aktivlari hajmini 2024 yil 10 oktyabr xisoboti davriga nisbatan 10 foizga qisqartirish imkoniyatini berdi;

banklarning aktivlarini davlat va Markaziy bank qimmatli qog‘ozlariga investitsiya qilish, jismoniy shaxslarga berilayotgan kreditlar va lizing operatsiyalari hajmini oshirish orqali muammoli aktivlar salmog‘ini qisqartirish haqidagi taklifi respublikamiz tijorat bankalari amaliyotiga joriy etildi (Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining 2024 yil 12 dekabrda 19/03-443 sonli ma’lumotnomasi va Markaziy bank Andijon viloyati bosh boshqarmasining 2024 yil 18 noyabrda 21-17/56-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif Markaziy bank Turonbank Aksiyadorlik tijorat bankining xisobotida aks ettirildi va amaliyotga joriy etish natijasida banklarning muammoli aktivlari hajmini 2024 yil 10 oktyabr xisoboti davriga nisbatan 5 foizga qisqartirish imkoniyatini berdi;

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo’yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 1 ta Impakt faktorli) jurnallarda va Xalqaro va mahalliy konferensiyalarda 12 ta tezis chop etilgan.

